

Agentlikda ikki kunlik seminar-yig‘ilish

O’zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligida 22-23-dekabr kunlari «Avtomobil transportini rivojlantirishning huquqiy asoslari va 2017-2021 yillarda respublika shahar va qishloqlarida yo‘lovchi transportini rivojlantirish istiqbollari» mavzusida seminar-yig‘ilish o‘tkazildi.

Tadbirni Agentlik boshlig‘i V. Ismoilov ochib, seminar ishtirokchilarini o‘rganilajak mavzu va masalalar bilan tanishtirdi.

Seminar-yig‘ilishda avtomobil transportida boshqarish va tartibga solish, avtobilda tashuvvlarni litsenziyalash xususiyatlari, tashuvchilarga qo‘yiladigan malakaviy talablar, mavjud muammolar, 2017-2021-yillarda O’zbekiston Respublikasi shahar va qishloqlarida yo‘lovchi transportini rivojlantirish dasturi va uni amalga oshirish chora-tadbirlari, avtotransport xavfsizligini ta’minalash chora-tadbirlari, shahar yo‘lovchi transportida yo‘l haqini to‘lashning yangi shakllari va usullari – maxsus smartkartlar qo‘llangan elektron tizim (Andijon shahri misolida) hamda 20 noyabrdan 20 dekabrga qadar qadar o‘tgan «Avtotransport vositalarida yo‘lovchilarga sifatli xizmat ko‘rsatish oyligi» kabi masalalar muhokama qilindi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 16-noyabrdagi 05/39-19-sonli chora-tadbirlar rejasiga asosan respublika hududida joriy yilning 20-noyabridan 20-dekabrigacha «Avtotransport vositalarda yo‘lovchilarga sifatli xizmat ko‘rsatish oyligi» o‘tkazilganligi to‘g‘risida gazetamiz orqali xabar bergen edik.

Seminar-yig‘ilishda Oylik yakunlari yuzasidan Agentlik boshlig‘ining o‘rinbosari Sh. Shovahobov batafsil ma’lumot berdi.

– Oylikni samarali o‘tkazishda har bir hududda tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan edi, – dedi, jumladan, ma’ruzachi. – O’zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi va hududiy bo‘limlar tomonidan jamoat transportining barcha turlarida, aholi gavjum joylarda Oylik haqidagi ma’lumotlar joylashtirilgani, bannerlar, bukletlar va boshqa tarqatma materiallar yetarlicha chop etilib, avtovokzal (avtostantsiyalar), shahar va tumanlardagi reklama peshtaxtalariga hamda yo‘lovchi tashuvchi avtotransport vositalarining salonlariga yopishtirilganligi, Oylik davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrinda 305 taga yaqin bannerlar o‘rnatilgani, 37 mingta buklet hamda 38 ming nusxada boshqa bosma axborot materiallari tarqatilgani ana shu sa’y-harakatlarning samarasidir.

Ma’ruzachi, Oylik doirasida o‘tkazilgan tadbirlarda hech bir masala e’tibordan chetda qolmagani, ayniqsa, turli mulkchilik shaklidagi tashuvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yaratish, har bir yo‘nalishda transport qatnovi intervallari bir maromda ishslashini ta’minalash, mehnat va yo‘nalish intizomini mustahkamlashga jiddiy e’tibor qaratilganini, soha xodimlarining yo‘lovchilar bilan xushmuomalada bo‘lishi, transport vositasi va uning salonini toza saqlash, haydovchilarning ish vaqtida uyali telefonlardan foydalanmasligi, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish qoidalari, ushbu jarayonda xavfsizlikni ta’minalashga doir talablarga rioya qilinishi doimiy nazorat ostida bo‘lganligini ta’kidlab o‘tdi.

Oylikda faol ishtiroki uchun Agentlikning Toshkent shahri, Andijon va Xorazm hududiy bo‘limlari Agentlik boshlig‘i tomonidan tashakkurnomalar hamda 27 nafar xodim faxriy yorliq va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlangan edi.

Yig‘ilganlar tomonidan kun tartibidagi va boshqa o‘zlarini qiziqtirgan masalalar yuzasidan savollar bilan murojaat qilib, ularga batafsil javoblar oldilar.

Seminar-yig‘ilish qiziqarli va ishchan ruhda o‘tdi.

O’zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi Axborot xizmati